


# Harakat tushunchasining falsafiy talqini



# REJA:


- **1. Harakat tushunchasi**
- **2.«Materiya harakatining shakllari va tiplari.**
- **3.Rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali yo`nalishlari.**




**«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'bra chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.**




**Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzdagi takrorlanishdir.**



- **Harakat va harakatsizlikning o‘zaro nisbati.** Falsafada harakat nafaqat turli jismlarning makonda mexanik siljishi sifatida, balki tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o‘zgarishi sifatida ham tushuniladi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o‘zaro ta'sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko‘payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo‘ladi.





- Agar biz biron-bir tabiiy ob'ekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo'lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtai nazaridan bu noto'g'ri, zero, Alp tog'lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo'lamiz.



# **Boblanishlarning turlari.**

**ta'sir va aks ta'sir**

**Biz narsa va hodisalarning  
harakati, o'zgarishi va  
rivojlanishiga ular o'rtasidagi  
boblanish va aloqadorlik**

# BOBLANISHLAR



zaruriy  
va  
tasodifiy

muhim va muhim  
bo'lmagan


ichki  
va  
tashqi

bevosita  
va  
bilvosita

- Albatta, olamdagi har qanday boblanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu boblanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha.


- Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bobliq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas.


**Demak,**  
**o'zaro boblanish va ta'sir**  
**natijasida narsa-**  
**hodisalarda o'zgarish**  
**sodir bo'ladi. Lekin,**  
**barcha o'zgarishni har**  
**doim ham birdaniga,**  
**yaqqol sezish mumkin**  
**emas. Chunki olamning**  
**namoyon bo'lishi turli**  
**darajada bo'lganligi**  
**sababli, o'zgarishlar ham**  
**turlichadir.**





**Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.**

**Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.**

- 
- **Falsafa tarixida harakat haqidagi tasavvurlar.** Harakatni dialektik tushunish kurtaklariga Geraklit asarlaridayoq duch kelamiz. U olovni barcha o'zgarishlar substansiyasi sifatida tavsiflab, birinchi moddiy asos doimo o'zi bilan birga, ayni vaqtda, doimiy o'zgarish holatida bo'lishi haqidagi fikrni sodda obrazli shaklda ifodalagan

- 
- Geraklit harakatni miqdor jihatidan oddiy joydan-joyga ko‘chish sifatida emas, balki uzlukli va uzluksiz, barqaror va o‘zgaruvchan narsa va jarayonlarning o‘zaro nisbati nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Antik davrdayoq Geraklit, undan keyin Epikur har qanday harakat manbaini ichki jarayonlarning qarama-qarshiligidan topgan.

- 
- Ayni shu antik davrda tushunchalar mantig'ida harakat jarayonini mantiqiy dalillar yordamida tushunib yetish bilan bog'liq qiyinchiliklar qadimgi faylasuf Zenonni mashhur aporiyalarni ta'riflashiga turtki berdi.

- 
- *Aporiya – muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo‘lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo‘lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo. Zenonning «Axill va toshbaqa», «Uchayotgan kamon o‘qi» kabi aporiyalari, hissiy tasavvurlarga zid o‘laroq, harakat materiyaning atributi ekanligiga shubhalanishga majbur qilgan*

# ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -176.
- Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
- Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. T.17. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.
- Karimov I.A. Hamkorlik, taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlash yo'lidan // Xalq so'zi. – 2010 yil 22 sentabr.